



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2026
1-сон



SERVIS

ILMIY-AMALIY JURNAL 2026 yil, 1-soni

Muassis: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan 2008 yil 31 dekabrda
0561-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

O‘zR OAK Riyosatining 19.03.2017 y., 239/5-sonli qarori bilan e‘tirof etilgan

Tahririyat a‘zolari:

Mas‘ul kotib:

i.f.d., prof. M.Q.Pardaev

Muharrirlar:

i.f.d., dotsent F.A.Safarov
PhD, dotsent I.M.Pardaeva
PhD, I.Sh.Ernazarova

Texnik muharrir:

katta o‘qituvchi F.O.O‘roqov

Korrektor:

PhD, dotsent v.b.
T.I.Yahyoyev

Sahifalovchi:

PhD, dotsent v.b.
H.N.Ochilova

1 yilda 4 marotaba
chop etiladi.

**O‘zbekiston hududida
tarqatiladi.**

Tahririyat manzili:

140100, Samarqand shahar,
Amir Temur ko‘chasi, 9-uy,

tel.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

faks: +998(366)231-12-53
el.pochta:

samisiservis@mail.ru

Tahrir hay‘ati raisi:

M.E.Po‘latov – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori,
i.f.d., professor

Tahrir hay‘ati raisi o‘rinbosari:

M.Q.Pardayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Tahrir hay‘ati a‘zolari:

M.M.Muxammedov – SamISI professori, iqtisod fanlari
doktori

D.R.Zaynalov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

O.M.Murtazayev – TDIUSF direktori, iqtisod fanlari doktori,
professor

M.R.Boltabayev – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

R.X.Ergashev – QarMII professori, iqtisod fanlari doktori

B.K.G‘oibnazarov – iqtisod fanlari doktori, professor

I.S.To‘xliyev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

K.B.Urazov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Q.J.Mirzayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

B.I.Isroilov – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

G.M.Shodiyeva – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

S.N.Toshnazarov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

R.N.Normaxmatov – SamISI professori, texnika fanlari doktori

A.Bektemirov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

O.M.Pardayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

M.T.Alimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Z.Dj.Adilova – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

Sh.O.Quvondiqov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

L.N.Xalikova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

F.A.Safarov – SamISI dotsenti, iqtisod fanlari doktori

A.M.Karimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

I.B.Mattiyev – SamISI professori, pedagogika fanlari doktori

B.F.Boronov – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

A.N.Xoliqulov – SamISI professori, iqtisod fanlari nomzodi

X.A.Raximov – SamISI dotsenti, PhD

S.A.Babanazarova – SamISI dotsenti, PhD

H.N.Ochilova – SamISI dotsenti v.b., PhD

I.R.Berdikulova – SamISI dotsenti v.b., PhD

A.Q.G‘apparov – SamISI dotsenti v.b., PhD

Farrux Shadiyorovich Shanazarov Ijtimoiy xizmatlarning inson kapitaliga ta’siri va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi funksiyalari	80
Mo‘minjon Shavqiddin o‘g‘li Muxiddinov Erkin iqtisodiy zonalarda logistika xizmatlarini rivojlantirish bo‘yicha xorij tajribasidan foydalanish	83
Behzod Berkinbayevich Qarshiyev O‘zbekistonda pullik tibbiy xizmatlar rivojlanishi	89
Akmal Ahtamovich Nizamov Yangi integratsiyalashgan tarmoqli-analitik model asosida logistik xizmatlarini optimallashtirish	95
TURIZM VA MEHMONXONA XO‘JALIGI	
Шухрат Хасанович Саттаров Современные тенденции и перспективы развития туризма в условиях цифровой экономики	100
Дилафруз Каршиевна Усманова Особенности применения форсайт-технологий в повышении конкурентоспособности национального туризма	104
Diyora Istamovna Ochilova, Rayhona Sadriddinovna Amriddinova Turistik xizmatlar nomoddiyligi va iste’molchi tajribasi: sifat hamda qiymatga asoslangan baholash	110
Оқила Сатимбаева Элликқалға туманида туризмнинг ривожлантириш имкониятлари	114
Nilufar Xabibjonovna Xolboyeva, Rayhona Sadriddinovna Amriddinova Mijozni ushlab qolish va yangi mijoz jalb qilishda sodiqlik dasturining o‘rni (Hilton Worldwide misolida)	118
Shohista Bobobekovna Toyirova Tog‘li hududlarda ekologik turizmni rivojlantirishda jahon tajribalari	123
MENEJMENT VA MARKETING	
Muhitdin Aynakulov Sayyohlar temperamentiga asoslangan sayyohlik infratuzilmasini tabaqalashtirilgan holda rejalashtirish modeli	128
Diyor Haqberdiyevich Xolmamatov Ulgurji savdoda marketing logistikasi strategiyasidan foydalanish	130
Xilola Nematovna Ochilova Ijtimoiy tarmoqlarda raqamli biznesni boshqarishning mohiyati va ahamiyati	135
Камилла Бахромовна Суюнова Обеспечение маркетинговой прозрачности бизнеса через цифровой аудит на онлайн-рынках	139
Sanjarbek Komiljon o‘g‘li Boyjigitov Iste’molchi xulq-atvorini tahlil qilishda Engel-Kollat-Blackwell modelidan foydalanish imkoniyatlari	142
Ашур Али Рустам угли Латипов, Паризода Раджаб кизи Алибекова Развитие сравнительного менеджмента за рубежом: кризис универсальной модели и вызов азиатских практик	146
Sadulla Shodiyevich Urazov Liderlikka xulq-atvor yondashuvining nazariy konsepsiyalari va boshqaruv tizimidagi o‘rni	150

Behzod Berkinbayevich Qarshiyev – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tadqiqotchisi

O‘ZBEKISTONDA PULLIK TIBBIY XIZMATLAR RIVOJLANISHI

Annotatsiya. Maqolada mamalakatimizda pullik tibbiy xizmatlarning rivojlanish bosqichlari va shart-sharoitlari retrospektiv tahlil usul orqali tadqiq qilingan. Har bir bosqichga sog‘liqni saqlash tizimining asosiy elementlari, institutsional asoslari, raqobat muhitining shakllanishi tahlil qilingan. Bugungi kunda sog‘liqni saqlash tizimiga ega bo‘lgan ko‘plab iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda pullik tibbiy xizmatlarga butun sog‘liqni saqlash tizimining zarur elementi sifatida o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: sog‘liqni saqlash tizimi, pullik tibbiy xizmatlar, tibbiy xizmatlarning rivojlanish bosqichlari, produtsentlar, raqamli servislari, pandemiya.

Kirish. Jahonda sog‘liqni saqlash tizimining jadal rivojlanishi, unda raqamli texnologiyalari roli ortib borayotgani va ularning tibbiy xizmatlar zanjiriga kirib borishi, tibbiy xizmatlar bozorida raqobat jarayonlarining kuchayib borishi global tendensiyani ifodalaydi va istiqbolda sog‘liqni saqlash tizimining barqaror rivojlanishini taqozo etmoqda. Bu borada olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatmoqdaki, “Jahonda 2023-yildan 2030-yilgacha bo‘lgan prognoz davrida sog‘liqni saqlash xizmatlari bozori hajmi har yili o‘rtacha yillik 6,0 % ga o‘sib, 2030 yilda ushbu xizmat turidan olinadiga daromad 5,4 milliard AQSH dollariga yetishi mumkin”¹. Shu jihatdan ham bugungi kunda sog‘liqni saqlash tizimida pullik xizmatlarning rivojlanishi va hozirgi holatini o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hozirgi kunda sog‘liqni saqlash tizimi milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlaridan biriga aylandi, chunki sog‘liqni saqlashga bo‘lgan ehtiyoj inson ehtiyojlari iyerarxiyasida alohida o‘rin tutadi. Salomatlik eng muhim (hayotiy) ehtiyojdir, chunki u insonning eng qimmatli narsasi, uning hayoti bilan bevosita bog‘liq. Shunga ko‘ra, tibbiy xizmatlar aralash turdagi jamoat ne‘mati, ya‘ni ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan tovarlar sirasiga kiradi. Ularning tashqi ta‘siri shunchalik muhimki, u tibbiy xizmatning shaxsiy ne‘mat hamda iste‘molda raqobatbardoshlik va eksklyuzivlik kabi xususiyatlariga bo‘ysunuvchan ahamiyat kasb etadi.

Tibbiy xizmatlarning iqtisodiy mohiyatini O‘zbekistonda zardushtiylik davridan sog‘liqni saqlash rivojlanishining koviddan keyingi bosqichigacha bo‘lgan davrda soha taraqqiyotining retrospektiv tahlili nuqtayi nazaridan o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Respublikamizda sog‘liqni saqlashning shakllanishini o‘rganishga o‘z ilmiy ishlarini bag‘ishlagan mahalliy olimlardan A.A.Abdullayev², A.A.Qodirov³, S.I.Indiaminov⁴, N.M.Maxmudova⁵, P.Z.Xoshimova⁶, P.Z.Xujanazarova, Sh.A.Allamuratova⁷, M.T.Haydarova⁸larni alohida qayd etish mumkin.

Tadqiqotlar metodologiyasi. Tadqiqotni olib borishda tizimli tahlil, monografik tahlil, guruhlash, statistik, retrospektiv tahlil usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Retrospektiv tahlili natijasida sog‘liqni saqlash tizimida tibbiy yordam, tibbiy xizmat kategoriyalari shakllanishida davlatda tarixiy, iqtisodiy, demografik shart-sharoitlar ahamiyati va ta‘siri namoyon bo‘ladi. Zamonaviy sog‘liqni saqlash tizimining transformatsiyasida ushu kategoriyalarning mazmunidagi o‘zgarishlar va tibbiy, iqtisodiy, ijtimoiy ahamiyatini yoritish imkoni yaratiladi.

1998-yilda sog‘liqni saqlashning milliy modeliga bosqichma-bosqich o‘tish nazarda tutilgan “Sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmon qabul qilindi.

¹ Global ambulatoru healthcare services market, by regions. Data Bridge Market Research/ 2023 to 2030. <https://www.databridgemarketresearch.com/ru/reports/global-ambulatory-health-care-services-market>

² A.A.Abdullaev. Xorazmda tibbiyotning rivojlanish tarixi. Tibbiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya Moskva -1971 r. 431 s.

³ A.A.Qodirov. O‘zbekiston tibbiyoti tarixi - Toshkent: IPO Ibn Sino. 1994.-223 s.

⁴ S.I.Indiaminov. Vrach faoliyatining huquqiy asoslari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2014, b.146

⁵ Maxmudova N. M. “O‘zbekistonda ichki kasalliklarning rivojlanish tarixi” Toshkentdan “Fan”, 1969 y.

⁶ P.Z.Hashimov, U.B. Mavlanov. O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimining rivojlanishi. // Iqtisodiyot va moliya, №4, 2012. <https://cyberleninka.ru/article/n/razvitie-sistemy-zdravoohraneniya-v-uzbekistane>

⁷ Xuzanazarov A.Z., Allamuratov Sh.A. O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimi: muammolar va islohotlar // Fan va amaliyot xabarnomasi. 2021. T. 7. №2. C. 405-410. <https://doi.org/10.33619/2414-2948/63/46>

⁸ M.T.Haydarov. Sog‘liqni saqlash sohasining institutsional tarakkieti va moliyalashtirish tizimi. //Iqtisod va moliya, №4, 2013. <https://cyberleninka.ru/article/n/so-li-ni-sa-lash-so-asining-institutsional-tara-iyoti-va-moliyalashtirish-tizimi>

Dastur besh yo‘nalishdan iborat edi – sanitariya sharoitlarini yaxshilash, shoshilinch tibbiy yordam tizimini rivojlantirish, onalar va bolalarga ko‘proq yordam ko‘rsatish, moliyalashtirishni ko‘paytirish va birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini isloh qilish zarurati bor edi.

Natijada 2500 qishloq vrachlik punkti ishga tushdi, respublika bo‘ylab 13 ta hududiy filiali va 130 dan ortiq tez tibbiy yordam stansiyalariga ega Respublika shoshilinch tibbiy yordam markazi tashkil etildi. 1990-2002 yillarda O‘zbekistonda chaqaloqlar o‘limi deyarli ikki baravar kamaydi va har 1000 tug‘ilgan chaqaloqqa 17 holatni tashkil etdi.

1998 yilda birinchi xususiy klinika ochildi. Bu esa biznes uchun ham, sog‘liqni saqlash uchun ham ikki baravar manfaat keltirdi. Xususiy klinikalar tarmog‘i o‘sib bordi, ularda tibbiy yordam ko‘rsatish uchun barcha sharoitlar yaratildi, ammo davlat klinikalarida esa hali ham keskin pul tanqisligi mavjud edi. 2005 yilda tibbiyot xodimlarining mehnatiga haq to‘lash tizimi o‘zgardi - ular qancha ko‘p ishlasa, shuncha ko‘p pul oladi. 2011 yilda Germaniya banki hamkorligida onalik va bolalikni muhofaza qilish bo‘yicha loyiha, 2012 yilda Islom taraqqiyot banki bilan hamkorlikda onkologiya muassasalarini modernizatsiya qilish loyihasi yo‘lga qo‘yildi.

BMT Taraqqiyot dasturining O‘zbekistondagi Iqtisodiy tadqiqotlar markazi mamlakat sog‘liqni saqlash sohasidagi ko‘rsatkichlarni a‘lo deb atagan bo‘lsa-da, bu boradagi bir qancha muammolarni ham ta‘kidladi. Moliyalashtirishning yetishmasligi va resurslardan oqilona foydalanmaslik shular sirasidandir.



O‘zbekistonda koronavirusning bir necha to‘lqinlari kuzatildi, karantin yumshatilib, keyin yana kuchaytirildi. 2022 yilga kelib, kunlik kasallanish soni 200-300 tadan oshmadi, jamoat joylarida niqob taqish 2022 yil 1 martdan bekor qilindi. Shunga qaramay, pandemiya O‘zbekistonda, ayniqsa, respublikaning chekka hududlarida tibbiyotga qattiq ta‘sir qildi. Ayrim ixtisoslashtirilgan dispanserlar va shifoxonalar kovid zonalariga aylantirildi, shu sababli bemorlar o‘z vaqtida kerakli davolanishni ololmadilar. Sog‘liqni saqlashga budjetdan ajratiladigan mablag‘larning ko‘payishi ham COVID -19 ga qarshi kurash bilan bog‘liq.

Ohirgi bosqichda tibbiy xizmatlar qisman raqamlashtirildi, tibbiy xizmatlar bozorida raqobatning kuchayishi an‘anaviy xizmat ko‘rsatish yondashuvlarini mijozlarga yo‘naltirilgan holda qayta ko‘rib chiqishga olib keldi. Ham xususiy, ham davlat tibbiyot muassasalari xizmat ko‘rsatish jarayonini raqamli makonga o‘tkazishga kirishdi, tibbiy sug‘urtani rivojlantirish kengaymoqda. O‘zbekiston hududida tibbiy xizmatning rivojlanish bosqichlari, sog‘liqni saqlashning asosiy yutuqlari va asosiy tavsiflari 1-rasmda keltirilgan.

Retrospektiv tahlil sog‘liqni saqlash tizimi tibbiy xizmatlar ko‘rsatishning elitistik tizimidan ijtimoiy, qulay va keng qamrovli majumaviy tizimga o‘tayotganini ko‘rsatdi. Agar mamlakatimizda sog‘liqni saqlash rivojining dastlabki bosqichlarida tibbiy xizmat aholining tanlab olingan ayrim qatlamlarini qamragan bo‘lsa, tez-tez sodir bo‘layotgan urushlar, to‘qnashuvlar, fuqarolar nizolari fonida o‘z rivojlanish doirasiga ko‘ra tibbiy yordam ko‘rsatish tizimi xizmatlar ko‘rsatishning ustuvor yo‘nalishiga aylandi, chunki qo‘shinlarning, armiyaning asosiy ustuni bo‘lgan millatning sog‘lig‘iga g‘amxo‘rlik qilish vazifasi qo‘yilar, bu esa g‘alabalar va hududlarni egallab olishni ta‘minlardi. Barcha turdagi epidemiyalar kasalliklarning oldini olish va profilaktika qilish bo‘yicha yuqori sifatli xizmatlarni ko‘rsatishni taqozo etdi, bu esa davlatning fan va ta‘limga e‘tiborini kuchaytirish zaruratini yuzaga chiqardi.

Hozirgi bosqichda tibbiy xizmat ko‘rsatuvchi produtsentlar integratsiyasi, xizmat ko‘rsatish jarayonida individual biznes-jarayonlarni raqamlashtirish, tibbiyot muassasalari faoliyatini mijozlar ehtiyojidan kelib chiqqan holda vertikal va gorizontol diversifikatsiyalash fonida sog‘liqni saqlash sohasining rivojlanishi jiddiy transformatsiyalar bilan tavsiflanadi. Albatta, transformatsiyalar sur‘ati tibbiy xizmatlar ko‘rsatuvchi tashkilotlar - produtsentlar, faoliyatni tashkil etish tizimi, moliyalashtirish manbalari va hududni qamrab olish xususiyatiga bog‘liq. Tibbiy xizmat ko‘rsatuvchi produtsentlarning tasnifi 2-sxema keltirilgan.


Zamonaviy sharoitda sog‘liqni saqlash tizimi sohada mulkchilikning hilma-xil shakllarining tashkil etish, tibbiyot biznesini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bobida tibbiy xizmatlar produtsentlari va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning aniq tuzilmasiga ega bo‘la boshladi. Hayot sifati va munosib xizmatlarga bo‘lgan talab sog‘liqni saqlashning egalitar tizimini zaiflashtirib, uning ijtimoiyligini kuchaytirdi. Ijtimoiy sog‘liqni saqlashni



1-Rasm. O‘zbekistonda tibbiy xizmatlarning rivojlanish bosqichlari

rivojlantirish konsepsiyasining dolzarbligi tibbiy yordamni davlat tomonidan moliyalashtirishning ustuvorligi, davlat aholining barcha qatlamlari uchun tibbiy xizmatni kafolatlagani bilan izohlanadi. Bularning barchasi, ayniqsa, so‘nggi 5 yil ichida sog‘liqni saqlash sohasidagi davlat xarajatlarining tobora o‘sib borib, ulkan miqyos kasb etishiga olib keldi.

Sog‘liqni saqlashda resurs talab qiladigan yondashuvning ustunligi tibbiy xizmatlarning o‘ziga xos xususiyati bilan bog‘liq. Ular kuchli xilma-xillik va katta klinik noaniqlikka ega ekani bilan ajralib turadi. Ko‘pgina tibbiyot xodimlari mehnatining foydali ta‘siri aniq ijtimoiy xususiyatga ega, ya‘ni nomoddiy qiymati tufayli uni hisoblash, tartibga solish va standartlashtirish qiyin. Tibbiy xizmatlar sifatining inson omiliga: tibbiyot xodimlarining malakasi va kasbiy mahoratiga, ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga nisbatan bog‘liqlik darajasi juda yuqori. Tibbiy yordamni sanoatlashtirishda cheklolarning mavjudligi va innovatsiyalarni joriy etishning mehnatni tejashdagi cheklangan samarasi ko‘pincha tibbiy yordam sifatining yaxshilanishiga va kamida - mehnat xarajatlarini tejashga olib keladi.



2-rasm. Sog‘liqni saqlash tizimida tibbiy xizmatlar tasnifi

Sog‘liqni saqlash ko‘plab mamlakatlarda sanoat sifatida mamlakatning mehnatga layoqatli aholisini ish bilan ta‘minlashning muhim manbalaridan biriga aylandi, bu esa uning umumiy holda mehnat bozoriga kuchli ta‘sir etishiga olib keldi. Bunday sharoitda sog‘liqni saqlashning xalq xo‘jaligining boshqa tarmoqlari bilan resurslar ta‘minoti va iqtisodiy faoliyat natijalari almashinuvi bo‘yicha aloqalari va o‘zaro ta‘siri yanada murakkablashdi. Sog‘liqni saqlashni rivojlantirishda resurs xarajatlarining oshishi bilan unga iqtisodiy tizim sifatida yondashuv tobora ko‘proq qo‘llanila boshlandi, Bu iqtisodiy tizim ishlashi uchun esa ehtiyojlar hajmini (shu jumladan, ko‘plab raqobatdoshlarini) baholash, resurslar miqdorini va ulardan foydalanishning muqobil usullari, shuningdek ularni taqsimlash mexanizmini aniqlashtirish talab etiladi.

Ma'lumki, salomatlik holati ko'plab omillarga bog'liq, jumladan, odamlarning turmush darajasi va hayot tarzi, ijtimoiy xulq-atvori, ovqatlanish, noqulay muhit, irsiyat va boshqalar. Shu sababli, tibbiyot muassasalarini saqlash xarajatlarining oshishi har doim ham odamlar salomatligini muhofaza qilish sohasida yetarli samara bermasligi mumkin. Pandemiya davrida sog'liqni saqlash tizimini boshqarishning yuqori xarajatli yondashuvi o'zini oqlay olmadi. Yirik budjet ajratmalariga qaramay, davlatlar katta yo'qotishlarga duch keldi, bu esa tibbiy xizmatlarni rivojlantirishga yondashuvlarni qayta ko'rib chiqish zaruratini keltirib chiqardi. Aholi farovonligining o'sishi, tibbiyot biznesining keng miqyosda rivojlanishi, ijtimoiy xizmatlarning raqamlashtirilishi tibbiy xizmatlarga qo'yilgan talabning oshishiga olib keladi. Bu jarayonda davlat produtsentlari xususiy soha bilan raqobatlasha boshlaganda, bozordagi talab ikkinchisining foydasiga qarab boradi, ya'ni, tibbiy xizmat o'z narxiga ega bo'lgan hamda talab va taklifni yaratadigan iqtisodiy xizmatga aylanadi. Albatta, davlat muassasalari ayrim jiddiy, surunkali kasalliklarga to'liq bepul tibbiy xizmat ko'rsatishi va bu borada biznes tuzilmalari faoliyatini cheklashi bilan mutlaq ustunlika ega. Biroq, ta'lim, turmush darajasi oshib, raqobat kuchayib borar ekan, produtsentlar qat'iy ravishda iste'molchilar ehtiyojlariga qarab ishlay boshlaydi. Ya'ni, butun sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish uchun elitistik, qimmat yondashuv obyektiv ravishda mijozga yo'naltirilgan yondashuv bilan almashtiriladi. Biroq, zamonaviy sharoitda raqobat muhitini oqilona chegaralar doirasida joriy etish maqsadga muvofiqdir, tibbiy xizmatlar sohasida bozor mexanizmini izchil xizmat, samarali tibbiy sug'urta, shuningdek, tibbiy yordamni kengaytirish va tibbiy xizmatlar sifatini oshirish uchun investitsiyalarni jalb qilish asosida jamoat salomatligi sektoriga qo'shimcha sifatida qo'llash zarur. Davlat barcha fuqarolarning o'z sog'lig'ini saqlashga bo'lgan asosiy, shoshilinch ehtiyojlarini qondiradigan, bepul va umumfoydalanish imkoniyatini beradigan tibbiy xizmatlarni kafolatlashi kerak. Davlat tomonidan kafolatlangan majburiy darajadan ortiq ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar, ayniqsa, daromad va narx bo'yicha talabning yuqori egiluvchanligi bilan ajralib turadigan, shuningdek, iste'mol tanlovining kengligi bilan ifodalanadigan elita tibbiy xizmatlar uchun pullik sektorni rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa va takliflar. Sog'liqni saqlashni rivojlantirishning muhim sharti tibbiy yordam ko'rsatishda innovatsion texnologiyalar darajasidir. Tegishli tibbiy yordam turi uchun u qanchalik yuqori bo'lsa, protseduralar va davolash usullarini tanlashda klinik noaniqlik darajasi shunchalik past bo'ladi hamda iste'molchilar va jamiyat tomonidan pullik tibbiy xizmatlarning sifati va maqbulligini nazorat qilish uchun xarajatlarni natijalar bilan taqqoslashning tijorat tamoyilini qo'llash imkoniyati shunchalik katta bo'ladi. Bugungi kunda sog'liqni saqlash tizimiga ega bo'lgan ko'plab iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda pullik tibbiy xizmatlarga butun sog'liqni saqlash tizimining zarur elementi sifatida qaraladi.

Sog'liqni saqlash sohasiga bozor munosabatlari elementlarini joriy etish tibbiy xizmatlar iste'molchisining mas'uliyatini oshirish va uning tibbiyot muassasalari ishiga ta'sir qilish imkoniyati nuqtai nazaridan amalga oshiriladi. Bir tomondan, hatto cheklangan miqyosda qo'llaniladigan tijorat tibbiyoti odamlarni tibbiy xizmatlardan foydalanish sohasida iqtisodiy bilimni oshirish va tarbiyalash, ularning sog'lig'iga g'amxo'rlik qilishni rag'batlantirish, arzon profilaktika vositalariga ko'proq e'tibor berishning muhim funksiyasini bajarib, tibbiy yordam turlarini kengaytiradi va shu orqali sog'liqni saqlash sohasini rivojlantirish imkoniyatlarini oshiradi. Boshqa tomondan, pullik tibbiyot ham iste'molchilarga, ham tibbiy xizmatlar ishlab chiqaruvchilariga sog'liqni saqlash tizimidagi kamchiliklar va muammolarni ochib beradigan ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi. Tijorat tibbiyoti innovatsion bo'lib bormoqda, chunki tibbiy xizmatlarning raqobatbardoshligi bevosita fan-texnika yutuqlari va aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning ilg'or tajribasini qo'llashga bog'liq.

Raqobatning samarasi jamoat salomatligi sektorini pullik tibbiyot bilan to'ldirish, uning kamchiliklarini qoplash va butun sog'liqni saqlash tizimining salohiyatini oshirishga olib keladi. Albatta, sog'liqni saqlash tizimida davlat va xususiy sektor o'rtasidagi maqbul muvozanat masalasi, ayniqsa, pandemiya sog'liqni saqlash muammolarini ochib bergan, tijorat tibbiyoti chetda qolib, o'z salohiyatini zarur darajada to'liq ro'yobga chiqara olmagan zamonaviy sharoitda dolzarb bo'lib qoladi.

Shunday qilib, hozirgi bosqichda xizmatlar bozorida pullik tibbiyotning raqobatbardosh

ustunliklari, tibbiy xizmat ko‘rsatuvchilarning integratsiyasi, xizmat ko‘rsatish sohasidagi biznes jarayonlarini raqamlashtirish va biznesni tashkil etishning innovatsionligi fonida sog‘liqni saqlashni rivojlantirishda transformatsiyalar ro‘y bermoqda. Sog‘liqni saqlash tizimida davlat va xususiy sektor ishtirokining maqbul nisbati nafaqat bemorlarni qanoatlantirishi, balki respublikada zamonaviy tibbiyot imidjini oshirishi lozim bo‘lgan tibbiy xizmat ko‘rsatishning tavsifi, tartibi va innovatsionligiga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Global ambulatoru healthcare services market, by regions. Data Bridge Market Research/ 2023 to 2030. <https://www.databridgemarketresearch.com/ru/reports/global-ambulatory-health-care-services-market>
2. A.A.Abdullaev. Xorazmda tibbiyotining rivojlanish tarixi. Tibbiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya Moskva -1971 г. 431 s.
3. Qodirov A.A. O‘zbekiston tibbiyoti tarixi - Toshkent: IPO Ibn Sino. 1994.-223 s.
4. S.I.Indiaminov. Vrach faoliyatining xukukiy asoslari. O‘quq qo‘llanma. Toshkent, 2014, b.146
5. Maxmudova N. M. “O‘zbekistonda ichki kasalliklarning rivojlanish tarixi” Toshkentdan “Fan”, 1969 y.
6. P.Z.Hashimov, U.B. Mavlanov. O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimining rivojlanishi. // Iqtisodiyot va moliya, №4, 2012. <https://cyberleninka.ru/article/n/razvitie-sistemy-zdravooxraneniya-v-uzbekistane>
7. Xuzanazarov A.Z., Allamuratov Sh.A. O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimi: muammolar va islohotlar // Fan va amaliyot xabarnomasi. 2021. T. 7. №2. C. 405-410. <https://doi.org/10.33619/2414-2948/63/46>
8. M.T.Haydarov. Sog‘liqni saqlash sohasining institutsional tarakkieti va moliyalashtirish tizimi. //Iqtisod va moliya, №4, 2013. <https://cyberleninka.ru/article/n/so-li-ni-sa-lash-so-asining-institutsional-tara-iyoti-va-moliyalashtirish-tizimi>
9. https://www.researchgate.net/publication/349393653_Telemedical_emergency_services_central_or_decentral_coordination
10. https://www.researchgate.net/publication/290944173_TELEMEDICINE
11. <https://unecon.ru/sites/default/files/d07krestyaninovaog.pdf>
12. <https://www.dissercat.com/content/tendentsii-razvitiya-rynka-strakhovoi-meditsiny-ssha/read>
13. <http://medical-diss.com/docreader/352822/a#/?page=1>
14. <https://www.ozon.ru/context/detail/id/145582965/>
15. <https://www.enu.kz/downloads/materials2/omirbaeva-diss.pdf>

<p>Б.Каршиев</p> <p>Развитие платных медицинских услуг в Узбекистане</p> <p>Аннотация. В статье методом ретроспективного анализа изучены этапы и условия развития платных медицинских услуг в нашей стране. Для каждого этапа анализируются основные элементы системы здравоохранения, институциональные основы и формирование конкурентной среды. Сегодня во многих экономически развитых странах с развитой системой здравоохранения платные медицинские услуги рассматриваются как необходимый элемент всей системы здравоохранения.</p> <p>Ключевые слова: система здравоохранения, платные медицинские услуги, этапы развития медицинских услуг, производители, цифровые услуги, пандемия.</p>	<p>B.Karshiev</p> <p>Development of Paid Medical Services in Uzbekistan</p> <p>Abstract. This article uses a retrospective analysis to examine the stages and conditions of development of paid medical services in our country. For each stage, the key elements of the healthcare system, institutional foundations, and the formation of a competitive environment are analyzed. Today, in many economically developed countries with well-developed healthcare systems, paid medical services are considered a necessary element of the overall healthcare system.</p> <p>Keywords: healthcare system, paid medical services, stages of medical service development, providers, digital services, pandemic.</p>
---	---

ISSN 2091-5187

☞ “SERVIS” ☞

Jurnal Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tahririyat
bo‘limida nashrga tayyorlandi.

06.03.2026 yilda terishga berildi. 19.03.2026 yilda bosishga ruxsat etildi. Ofset
bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84_{1/8}. “Times” garniturasini. Ofset bosma usuli.
Shartli bosma tabog‘i 15,4. Hisob-nashriyot
tabog‘i 14,37. Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 0031A/26

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining
matbaa bo‘limida chop etildi.
Litsenziya № 025316.
Reestr № X-119112.

Manzil: Samarqand shahri, Shoxruh ko‘chasi, 60-uy.

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2026.